KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA OID ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY QARASHLARNING EVOLYUTSION TAHLILI

G‘iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada kreativ fikrlash tushunchasining ilmiy asoslari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy xorijiy ta'lim tizimlaridagi tajribalari o‘rganilgan.Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon nafaqat individual fikrlashning yuqori darajali shakli, balki u shaxsning o‘zligini anglash va o‘zgaruvchan dunyoda moslashuvchanlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: *Kreativ, tashabbus, kompetensiya, ijodkorlik, pedagogika, g‘oya, integratsiya, texnologiya, innovatsion, metod, ko‘nikma.*

KIRISH

Globallashuv va tezkor texnologik o‘zgarishlar insonlardan zamonaviy muammolarga ijodiy yondashishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan kreativ fikrlash kompetensiyasi asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida shakllandi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun uzluksiz ta’lim, madaniy qo‘llab-quvvatlash va metodik innovatsiyalar zarur. Tadqiqotimiz mazkur kompetensiyani rivojlantirishga oid ilg‘or xorijiy tajribalarni va nazariy qarashlarning tarixiy rivojlanishini qamrab oladi.

Hozirgi zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsion jarayonlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jahon ta’lim tizimida “tajriba asosida ta’lim olish” (experiential learning) tamoyilining ustuvorligi ortib borayotgani bejiz emas. Ushbu yondashuv talabalar ongida nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish, shaxsiy rivojlanish va mustaqil fikrlash salohiyatini kuchaytirish uchun zarur omil sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatga tayyor, kreativ fikrlovchi, kasbiy vazifalarga yangicha yondashuv bilan kirisha oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim strategik vazifaga aylangan.

Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon nafaqat individual fikrlashning yuqori darajali shakli, balki u shaxsning o‘zligini anglash va o‘zgaruvchan dunyoda moslashuvchanlikni ta'minlash uchun zarurdir. Kreativ fikrlash, shuningdek, shaxsning izlanish va o‘rganish istagini, yangi imkoniyatlarni kashf qilish va mavjud bilimlarni qayta talqin etish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Xorijiy olimlar orasida kreativ fikrlashning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda psixologik, pedagogik va ijtimoiy kontekstlarni ham hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Masalan, P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan kreativlikni o‘lchash metodikalariga ko‘ra, kreativ fikrlash o‘z ichiga tasavvur qilish, yangi fikrlarni yaratish, eski g‘oyalarni yangicha shaklda ifodalash kabi ko‘nikmalarni olib keladi.

Torrance, shuningdek, kreativ fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining roli, ijtimoiy muhit va madaniy omillarni ham muhim deb hisoblaydi. Shu bilan birga, kreativ fikrlashni o‘rgatishda o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchining, tashabbuskorligining va mustaqil fikrlash qobiliyatlarining oshirilishi muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish, nafaqat darslarda yangi metodlarni qo‘llash orqali, balki ta’limda innovatsion texnologiyalarni samarali tarzda integratsiya qilish orqali ham erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning muammolarni yaratish va ularga yechim izlashda yangi va o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llashga yordam beradi. Shu tarzda, kreativ fikrlashni rivojlantirish faqatgina akademik muvaffaqiyatlar uchun emas, balki kelajakda shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishish uchun ham zarur vosita sifatida qaraladi. O‘qituvchilar, o‘z navbatida, kreativ fikrlashni qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim jarayoniga doimiy ravishda yangiliklarni olib kirishlari, o‘quvchilarning tashabbuskorligini va mustaqil fikrlashini rag‘batlantirishlari lozim.

Kreativ fikrlash — zamonaviy dunyoda raqobatbardosh insonni shakllantirishda asosiy omil. Ilg‘or xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish tizimli, kompleks va erkin o‘quv muhitini talab qiladi. Mahalliy ta’lim tizimida ham ushbu yondashuvlarni joriy etish orqali yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish mumkin.

Amaliy kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari orasida kreativ fikrlash darajasining pastligi dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur holatni bartaraf etish uchun esa ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, interaktiv, faol va noan’anaviy metodik vositalardan foydalanish lozim. Faqatgina shu yo‘l orqali talabalarda kreativlik darajasini oshirish, ularning ijodiy faoliyatga qiziqishini kuchaytirish va mustahkam kasbiy tayyorgarlikka erishish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot davomida “innovatsion texnologik topshiriqlar”, “kreativlik”, “kreativ fikrlash” tushunchalari keng pedagogik asosda izohlandi. Ushbu asosda quyidagi mualliflik ta’rifi shakllantirildi: Kreativ fikrlash – bu bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining mavjud bilim va tajribalarga tayanib, muammolarga nostandart, yangicha va innovatsion yondashuvlar orqali yechim topishga yo‘naltirilgan tafakkur faoliyatidir. U moslashuvchanlik, originallik, assotsiativlik va divergent fikrlash kabi xususiyatlar asosida shakllanib, yuqori darajadagi motivatsiya, refleksiya va shaxsiy ifoda ehtiyoji bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshadi. Shuningdek, pedagogik-psixologik tadqiqotlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kreativ fikrlash faoliyati quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:
– muammolarga nostandart va original yondashuvlar bilan yechim topish;
– turli fanlararo bilimlarni integratsiyalash orqali yangi g‘oyalar ishlab chiqish;
– tafakkurda moslashuvchanlik va fikr yuritishda mustaqillik;
– refleksiv fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik.

Bu xususiyatlar, ayniqsa, innovatsion texnologik topshiriqlarning mazmunida ifodasini topganida, talabalar kreativ fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Torrance, E. P. (1974). The Torrance Tests of Creative Thinking: Technical-norming manual. Scholastic Testing Service.

3. Amabile, T. M. (1996). Creativity in Context: Update to the Social Psychology of Creativity. Westview Press.

4. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. Capstone Publishing.

5. Guilford, J. P. (1967). The Nature of Human Intelligence. McGraw-Hill.

6. Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1995). Defying the Crowd: Cultivating Creativity in a Culture of Conformity. Free Press.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2019). O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5847-son.

8. Muslimov, N. A., & b. (2015). Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti.

9. Sharipov, Sh. S. (2012). Talabalar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Toshkent.